


III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 21 083,8 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan 104,2 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 20 613,0 mlrd. so'mni (104,2 %), ovchilik sohasida ko'rsatilgan xizmatlar 0,3 mlrd. so'mni (101,9 %), o'rmon xo'jaligida 292,7 mlrd. so'mni (102,8 %), baliqchilik xo'jaligida 178,1 mlrd. so'mni (103,6 %) tashkil qildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o'sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog'liqdir.

Xususan yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahri (117,6 %), Zafarobod (113,7 %), Mirzacho'l (112,5 %) va Forish (108,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shuningdek, o'z navbatida Zomin (98,8 %) va Arnasoy (92,4 %) tumanida past o'sish sur'atlari kuzatildi.

2021 yilning yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tarkibiy tuzilishida eng yuqori ulush dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keladi (umumiy hajmga nisbatan 69,1 foiz).

Dehqonchilik. 2021 yilning yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 7 716,1 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan 101,6 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 38,0 foizni tashkil qildi.


Hosilni yig‘ib olish. Hisobot davrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 69 7218,0 tonna (o‘tgan yilga nisbatan 88,3 %) jami don, 61 6912 tonna (86,8 %) boshoqli don, 548 371 tonna (90,4 %) bug‘doy, 38 966 tonna (90,5 %) makkajo‘xori, 90 682 tonna (110,1 %) kartoshka kovlab olindi, 436 128 tonna (102,5 %) sabzavotlar, 26 9513 tonna (101,9 %) oziqbop poliz, 90 330 tonna (102,3%) mevalar va rezavorlar 29 757 tonna (104,1 %) uzum yig‘ib olindi.

**2021 yilning yanvar-dekabr xo‘jalik toifalari bo‘yicha
asosiy turdagি dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


	<i>Barcha toifadagi xo‘jaliklar</i>	<i>Shu jumladan:</i>							
		<i>Fermer xo‘jaliklari</i>		<i>Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>			
		<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>
Don jami	697 218	88,3	582 028	88,7	16 161	105,8	99 029	83,4	
Boshoqli don	606 912	86,8	503 196	86,5	7 600	111,6	96 116	87,1	
shundan: bug‘doy	548 371	90,4	458 755	92,5	7 386	109,2	82 230	78,8	
makkajo‘xori don uchun	38 966	90,5	29 075	101,4	8 001	101,2	8 001	101,2	
Kartoshka	90 682	110,1	28 699	128,6	61 599	103,1	384	121,1	
Sabzavotlar- jami	436 128	102,5	188 389	104,9	240 437	104,2	7 302	48,7	
Poliz – jami	269 513	101,9	146 724	101,2	108 841	102,2	13 948	107,1	
Mevalar va rezavorlar-jami	90 330	102,3	35 090	102,7	53 661	102,3	1 579	94,1	
Tokzorlar	29 757	104,1	12 565	111,0	16 630	100,7	562	75,4	

2021 yilning yanvar-dekabr oyida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Boshqoli don (ming tonna)




Bug'doy (ming tonna)




Makkajo'xori don (ming tonna)




Kartoshka (ming tonna)




Sabzavotlar (ming tonna)




Poliz (ming tonna)



Mevalar va rezavorlar (ming tonna)



Uzum (ming tonna)



Chorvachilik. Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tizimli qo‘llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o‘sishiga, ichki iste’mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to‘yinishiga imkon yaratdi.

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 12 610,7 mlrd. so‘mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan yanvar-dekabrdan foizni (2020 yilning yanvar-dekabrida 105,3 %) tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 62,0 fozni tashkil etdi.

2022 yilning 1 yanvar holatiga viloyatdagi yirik shohli qoramollar bosh soni 918,0 ming boshga (101,4 %), shu jumladan sigirlar 258,8 ming boshga (101,8 %), qo‘y va echkilar 2 252,4 ming boshga (101,6 %), otlar 27,7 ming boshga (99,3 %) parrandalar 3 456,5 ming boshga (95,1 %)ga yetdi.


2022 yil 1 yanvar holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>Barcha toifadagi xo‘jaliklar</i>		<i>Shu jumladan:</i>						
			<i>Fermer xo‘jaliklari</i>		<i>Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>		
	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	
Yirik shohli qoramollar	918 022	101,4	54 088	110,5	837 833	100,9	26 101	100,7	
Sigirlar	258 806	101,8	16 136	107,1	234 402	101,9	8 268	90,7	
Qo‘y va echkilar	2 252 416	101,6	414 408	102,6	1 575 346	102,3	262 662	96,5	
Otlar	27 708	99,3	6 998	110,5	16 856	102,9	3 854	74,4	
Parrandalar	3 456 481	95,1	373 572	111,2	1 616 642	102,3	1 466 267	85,3	


Umumiy bosh soniga nisbatan, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shohli qoramollarning ulushi 91,3 foizni, fermer xo‘jaliklarida 5,9 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 90,6 va 6,2 foizni, qo‘ylar va echkilar 69,9 va 18,4 foizni, parrandalar 46,8 va 10,8 foizni tashkil qildi.

2022 yil 1 yanvar holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni


Yirik shohli qoramollar (ming bosh)




shu jumladan: sigirlar (ming bosh)




Qo'yilar va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Otlar (ming bosh)




2021 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vaznda 227,0 tonna go‘sht (2020 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 104,5 foizga ko‘p), 650,1 tonna sut (103,6 %), 406,8 ming dona tuxum (123,6 %) va 4,4 dona qorako‘l teri (103,0 %) ishlab chiqarildi.

**2021 yilning yanvar-dekabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha
asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


	<i>Barcha toifadagi xo‘jaliklar</i>	<i>Shu jumladan:</i>							
		<i>Fermer xo‘jaliklari</i>		<i>Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalgा oshiruvchi tashkilotlar</i>			
		<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>
Go‘sht, tirik vaznda, tonna	226 982,0	104,5	6 161,0	142,7	218 736,0	103,4	2 085,0	148,1	
Sut, ming tonna	650 064,0	103,6	14 252,0	114,4	633 713,0	103,3	2 099,0	143,5	
Tuxum, ming dona	406 779,5	123,6	19 283,0	138,2	202 569,0	101,0	184 927,5	161,4	
Qorako‘l teri, dona	4 449,0	103,0	2 999,0	98,9	494,0	91,0	956,0	128,8	
Ovlangan baliq	13 139,3	100,2	1 362,0	79,2	2 592,0	101,7	9 185,3	103,8	

**2021 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i
chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Go'sht (tonna)



Sut (tonna)



Tuxum (ming dona)



Ovlangan baliq (tonna)

